

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**



Rektor

Sh. Sirojiddinov



KELISHILDI

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Ro'yxatga olindi: №BD-5111200-3.02

2019-yil 17 08

**O'ZBEK ADABIYOTINI O'QITISH METODIKASI
FAN DASTURI**

Bilim sohasi: 100 000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi: 110 000 – Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi: 5111200 – O'zbek tili va adabiyoti

Toshkent – 2019

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2019-yil 17.08 dagi "4" -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 4.10 dagi 892 -sonli buyrug'ining 2 - ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

R.X. Niyozmetova – ToshDO'TAU, O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi kafedrasida professor, pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

B.M. Abduraxmonova – QDPI, O'zbek adabiyoti va uni o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (*turdosh OTM*);

T. Matyoqubova – ToshDO'TAU, O'zbek adabiyoti tarixi va folklori kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2019-yil 1.07 dagi ~~11~~ -sonli bayonnomasi).

h/m. Abdullayev *M. Oltin*
Sh *P. D. ...*
Sh *Sh*

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi fani talabalarga zamon talablariga mos ravishda o'qitishning eng qulay va zamonaviy metodlari to'g'risida bilim berish, bo'lg'usi fan o'qituvchisining kasbiy faoliyatiga doir dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularga qo'yiladigan kasbiy talablar asosida mazkur fanni zamon talablari darajasida o'qitishning samarali metodlari, shakl va usullari haqidagi nazariy bilimlarni o'zlashtirishini ta'minlash masalalari dolzarb vazifalardan bo'lib qolmoqda. Adabiyotni o'qitish metodikasi fani bo'yicha talabalarga ta'lim bosqichlarida olib boriladigan ilmiy-metodik hamda pedagogik ishlarning turlari, dars turlari, badiiy asarni tahlil qilishga oid metodik yondashuvlar, yetakchi tamoyillar, shuningdek, bo'lg'usi adabiyot o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish, milliy adabiy ta'lim tizimida amalga oshirilgan eng so'nggi yutuqlar samarasi o'laroq o'qitish tizimining jahon ta'limi jarayonlari bilan hamqadam borayotganligini ko'rsatish, adabiyot o'qitishning turli zamonaviy metod va usullaridan foydalanish tizimi tavsiya etiladi.

“O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi” fani o'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha yetuk kadrlar tayyorlash, adabiyot o'qitish metodikasi yo'nalishidagi ilmiy-metodik tadqiqotlarni rivojlantirish, ta'lim tizimida adabiyot o'qitishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad – bo'lajak o'qituvchilarga badiiy adabiyotni o'qib-o'rganishning zamonaviy shakl va usullari haqidagi nazariy qarashlar hamda ularni amaliyotga tatbiq qilishning pedagogik hamda metodik imkoniyatlarini ko'rsatishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, o'zbek adabiyotini o'qitish metodikasining ilg'or yutuqlarini, amalda badiiy asarni tahlil qilish, darsning ilmiy-nazariy asoslarini; adabiyotga oid dars hamda sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning nazariy-metodik asoslarini; adabiy asarlarni o'qitish orqali o'quvchilarning badiiy – estetik didi, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati, kitobxonlik madaniyatini kamol to'tirishga o'rgatishdan iborat. Bundan tashqari, bo'lajak o'qituvchilar o'quvchilarni badiiy asar qahramonlarining shaxsiy sifatlarini baholashga o'rgatish jarayonini tashkil etish usullari, metodlarini, ularni mustaqil mulohaza yuritishga undash va muammolarning yechimiga ijodiy yondashishga o'rgatish, mustaqil tarzda xulosalar chiqarishga, bunda ularning verbal-

lingvistik intellektini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimidan foydalanishga o'rgatiladi. O'zbekiston ta'lim muassasalarida amal qilinayotgan adabiyot o'qitish metodlarini xorij tajribalaridan foydalanib amalga oshirishga o'rgatish nazarda tutilgan.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

- "O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi" fanining obyeksi va predmeti;
- o'zbek adabiyoti fanining ta'lim tizimida tutgan o'ri;
- o'zbek adabiyoti ta'limining taraqqiyot bosqichlari, fanni o'qitish metodlari va usullari;
- o'zbek adabiyoti fani bo'yicha yaratilgan darsliklar, qo'llanmalarining xususiyatlari;
- ona tili va adabiyot o'qituvchisining innovatsion pedagogik faoliyatining nazariy-metodik asoslari, pedagogik faoliyatni amalga oshirish metodikasi, adabiyot o'qitishda darslarni kompyuterlashtirish, masofaviy ta'lim va uning xususiyatlari, adabiyot darslarida internetdan foydalanish yo'llari va madaniyati, ma'lumotlar omboridan samarali foydalanish *to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi (bilim)*;
- umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi o'zbek adabiyoti fanlari dastur va darsliklari mazmuni;
- o'zbek adabiyotini o'qitish metodlari, usullari, ularning nazariy asoslarini, adabiyot o'qitish metodlarining o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini bilishi;
- badiiy asarni tur va janr xususiyatlariga ko'ra tahlil qila olish;
- o'zbek adabiyoti fani bo'yicha o'quvchilarni mustaqil tahsil olishga yo'llash;
- ta'lim tizimida fanning mazmuni, uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan metod va usullar asosida ta'lim samaradorligini oshirish, ta'lim jarayonini tashkillashtirishning ilmiy-metodik asoslari, o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisining pedagogik faoliyatini, o'quv mashg'ulotlarini, kasbga yo'naltirgan holda muammoli o'qitish *ko'nikmasiga ega bo'lishi (ko'nikma)*;
- mazkur o'quv predmetining nazariy asoslarini, badiiy asarni tahlil qilish va baholash mezonlarini, Blum taksonomiyasi asosida fanning o'qitish bosqichlarini belgilay olishi, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini o'stirishning shakl va usullarini, dars jarayoniga qo'shimcha adabiyotlarni, yangi axborot hamda turli texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
- fan dasturi, ishchi dasturi asosida kalendar tematik rejani tayyorlash, darsliklar ustida ishlash, malakaviy amaliyotlarni tashkil etish va rejalashtirish;

– talaba ta'limning turli bosqichlarida mazkur fan yuzasidan namunali dars o'tish, turli tadbirlarni o'tkaza olish, zamon talabidagi darslarni tashkil qila olish *malakalariga ega bo'lishlari kerak.*

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-modul. Adabiyot o'qitishning umumiy asoslari

1-mavzu. Adabiy ta'lim jarayonini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ta'lim va tarbiya jarayonlarining asosiy qonun hujjati sifatida. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va kadrlar tayyorlash milliy dasturi. "Davlat tili to'g'risida"gi va "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonunlarning til ta'limida tutgan o'rni. Adabiyot o'qitish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi "PF-4797-sonli farmonining mazmun mohiyati va uning adabiyot ta'limi oldiga qo'ygan vazifalari xususida. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmonida adabiyot ta'limi oldiga qo'yilgan vazifalar xususida.

2-mavzu. Adabiyot o'qitish metodikasining umumnazariy masalalari

Yurt mustaqilligiga erishilganidan keyin pedagogika ilmi va amaliyotida, ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilayotgan keskin o'zgarishlar. Bolalarga tayyor bilimlarni berishdan ko'ra ma'naviyatini sog'lomlashtirishning, mustaqil fikrlashga yo'naltirishning, ta'lim olish jarayonida o'zlarining ishtirokini ta'minlashning yangi-yangi yo'llarini topishga intilinayotganligi. O'qitishning asosiy ashyosi bo'lmish darslik, metodik qo'llanma, metodik tavsiyalar hamda metodika ilmida malakali kadrlar yetishtirib berishdan ko'ra ruhan sog'lom, aqlan barkamol, o'z fikri va keng dunyoqarashiga ega bo'lgan, o'z sohasini yaxshi biladigan avlodni tarbiyalashning ustuvorligi. Adabiyot metodikasining pedagogika tizimiga mansub mustaqil fan ekanligi. Adabiyot o'qitish metodikasining metodologik asoslari. Adabiyot o'qitish metodikasining obyekti va predmeti. Adabiyot o'qitishning maqsadi va vazifalari. Adabiyot o'qitishning dolzarb muammolari.

3-mavzu. Adabiyot o'qitish metodikasining tarixi va shakllanish taraqqiyoti

Adabiyot o'qitish metodikasi fanining o'tmishdagi buyuk allomalar, mudarris olimlarning qarashlariga tayanishi. Metodik fikrlar tarixining o'zbek xalqi va millat adabiyoti taraqqiyoti bilan bog'liqligi.

4- mavzu. Adabiyot o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi

Bo'lajak adabiyot o'qituvchilarining o'quv rejasida ko'zda tutilgan falsafa, pedagogika, psixologiya, adabiyot nazariyasi, o'zbek adabiyot tarixi, hozirgi o'zbek adabiy tili, umumiy tilshunoslik, mutaxassislikka kirish, o'zbek dialektologiyasi, xalq og'zaki ijodi kabi fanlardan xabardorligi va adabiyot o'qitishda ulardan foydalana bilish qobiliyati.

5- mavzu. Adabiyot o'qitish metodikasiga xos bo'lgan tamoyillar

Milliy adabiy ta'limda badiiy asarlarni o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari, Adabiy ta'limdagi yetakchi tamoyillar.

2- modul. Adabiyot o'qitish metodlari tasnifi, turlari va mazmuni

1-mavzu. Adabiy ta'lim metodlari, usullari, shakllari hamda ularning o'zaro aloqadorligi

Adabiy ta'lim metodlarining mazmun-mohiyati. Adabiyot o'qitish shakllari va usullari. Adabiyot o'qitish metodlarining o'zaro o'xshash va farqli jihatlari.

2-mavzu. Adabiyot o'qitishda ta'lim texnologiyalarining o'rni va roli.

Hamkorlik pedagogikasi texnologiyasi va uning o'ziga xos xususiyatlari

Texnologiya so'zining mohiyati. Ta'lim jarayoniga o'qish va o'qitishning o'zaro uzviyligini, aloqadorlik bosqichlarini ajratish, ta'lim-tarbiya jarayonida belgilangan maqsadga erishish uchun bajariladigan ishlarni muvofiqlashtirish, ularning ketma-ketligi hamda bosqichma-bosqichligini ta'minlash, rejalashtirilgan barcha ishlarni talab darajasida bajarishni anglatishi.

Sinergetikaning (hamkorlik, hamjihatlik) – tizimlarning o'z-o'zini mustaqil tarzda tashkil etish nazariyasi, o'z-o'zini boshqarish, nomuntazam hodisalarni o'rganish, dunyoviy hodisalarni yangicha izohlash, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy murakkab tizimli jarayonlarning tabiatini bilishga qaratilgan ilmiy yo'nalish. tafakkur usuli ekanligi.

3-mavzu. O'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlashda muammoli ta'lim texnologiyasining o'rni

Ta'lim jarayonida o'quvchilarni o'qituvchi aytganlarini bajaradigan ishtirokchilikdan ta'lim-tarbiya jarayonining ijrochilari darajasiga ko'tarish maqsadida o'zlashtiriladigan bilimlarni tarbiyalanuvchi oldiga muammo shaklida qo'yish masalasi. Adabiyot darslarida muammoli ta'limdan foydalanish yo'llari.

4-mavzu. Pedagogik innovatsion texnologiyalar va adabiy ta'lim. Modulli ta'lim texnologiyasi xususiyatlari va adabiyot o'qitishda undan foydalanish yo'llari

Pedagogik innovatsiya – ta’lim va tarbiyaning samaradorligini oshirish maqsadida uning mazmuni, texnologiyasi hamda tashkil etish jarayoniga kiritilgan yangiliklarni anglatishi. Innovatsiya jarayoni ta’lim-tarbiyani tashkil etish va uning mazmunini o’stirishga kiritilgan yangiliklardan iborat tushuncha ekanligi.

Modul so’zi qism, bo’lak, blok ma’nolarini anglatishi. Modulli ta’lim pedagogik texnologiyani tashkil etuvchi tarkibiy bo’laklarni ifodalashi. Bu ta’lim dars jarayonini tashkil etishdagi eng kichik ish turlaridan hamda ularning turli miqdordagi to’plamlaridan iborat bo’lishi. Bunda eng kichik faoliyat turi eng kichik modul sanalib, boshqalari qancha modulni qamrab olishiga qarab o’ziga mos darajadani anglatishi.

Adabiyot o’qitish jarayonida modulli ta’lim texnologiyasidan foydalanilganda o’rganiladigan mavzu mantiqiy tugallangan bo’laklarga, ya’ni modullarga ajratilishi. Har bir bo’lak o’quvchilar mustaqil ishlashlari uchun maxsus topshiriqlarga aylantirilishi mumkinligi.

5-mavzu. Didaktik o’yinlar texnologiyasi va uning adabiy ta’limdagi o’rni.

Sinov darslari texnologiyasining adabiy ta’limdagi ahamiyati

Ta’lim tizimida qo’llaniladigan didaktik o’yinlar nafaqat boshlang’ich sinflarda yoki o’rta maktablarda, balki o’rta-maxsus ta’lim, hatto oliy o’quv yurtlari ta’limi amaliyotida ham muhim ahamiyat kasb etishi. Didaktik o’yinlar asosida tashkil etiladigan darslar dasturda qayd etilgan mavzularning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadi hamda vazifalarini hal qilishga qaratilganligi. Didaktik o’yinlar ta’lim amaliyotdagi muhim muammolar yechimiga qaratilganligi. Ularning tarbiyalanuvchini ham aqlan, ham jisman, ham ruhan to’liqishdan asrashga yo’naltirilganligi.

Sinov darslari tarbiyalanuvchilarning adabiy ta’lim bo’yicha o’zlashtirgan bilimlari, shakllantirilgan ko’nikma va malakalari hamda ma’naviyatining sog’lomlashuvini muntazam nazorat qilish, yutuqlar, xato- kamchiliklarni inobatga olib borish imkonini berishi. Bunday darslar o’qituvchiga o’qitish natijalari hamda adabiy ta’lim vazifalarining bajarilganlik darajasini aniqlash imkonini berishi.

6-mavzu. Erkin tarbiya texnologiyasi va uning adabiy ta’limdagi o’rni

Bugungi milliy tarbiyashunoslik nazariyasida shaxs ijodiy potensialini ongli ravishda o’zining rivojlanishiga qaratish tendensiyasi hukmronlik qilayotgani. Erkin, ijodkor shaxsni tarbiyalash g’oyasiga hamma zamonlarda pedagoglar ham, faylasuflar ham birdek e’tibor qaratganliklari. Pedagogika ilmida erkin tarbiya konsepsiyasiga bolaning hayoti, axloqi va faoliyatiga har xil cheklovlar qo’yish va unga hokimlik qilishga qarama-qarshi ravishda asos solinganligi. Erkin tarbiya

tarafdorlarining ideali bola rivojlanishi va qobiliyatiga hech qanday cheklov yoki ta'qiqlar qo'ymaslikdan iborat bo'lganligi.

7-mavzu. Blum taksonomiyasi va adabiy ta'lim. Adabiyot o'qitish metodikasi fanida motivatsiya

Adabiyot darslarini tashkil etishda Blum taksonomiyasi va uning adabiyot o'qitishdagi ahamiyati. Blum taksonomiyasi asosida fanning o'qitish bosqichlarini belgilash. Motivatsiya.

3-modul. Badiiy asar ustida ishlash

1-mavzu. Asarlarni janri va obrazlar tizimiga ko'ra o'rganish

Epik, lirik va dramatik turdagi asarlarni janr xususiyatlariga ko'ra farqlash. Har turga mansub asarlardagi badiiy va majoziy obrazlar tahlili. Lirik qahramon tushunchasi va uning matndagi o'imi. Asardagi asosiy va yordamchi obrazlar.

Epik asarlar ustida ishlash yo'llari

Epik asarlar tahlilining o'ziga xos xususiyatlari. Epik asarlarni o'rganishda adabiy o'qishning roli. Epik asarlarni tahlil qilishning metodik talablari.

2-mavzu. Lirik asarlarni o'rganish

Lirik asarlarni tahlil qilishning o'ziga xos xususiyatlari. Lirik asarlarda kayfiyat va tuyg'ular tasvirining ustuvorligi. Lirik asarlarning inson ichki dunyosi, ruh va qalb hodisalarining tasvir obyektli ekanligi. Lirik asarlarda ifodali o'qishning ahamiyati.

3- mavzu. Dramatik asarlar ustida ishlash yo'llari

Dramatik asarlarning o'ziga xos xususiyatlari. Dramatik asarlarning turlari. Dramatik asarga xos sahna, parda, ko'rinish, dekoratsiya, monolog, dialog, luqma, remarka, prolog, epilog, tugun, yechim haqidagi nazariy ma'lumotlarni mustahkamlash.

4-mavzu. Adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish. Asarlar yuzasidan tuzilgan savol-topshiriqlar ustida ishlash yo'llari

Adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish – metodologik asos va badiiy tahlil vositasi, milliy adabiyotga tayanish, dasturga amal qilish, zarur o'rinda dasturda nazarda tutilmagan nazariy ma'lumotlarning berilishini rejalashtirish, nazariy bilimlarni amalda qo'llay olish, sinflararo uzviylik va uzluksizlik, bunda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va adabiy tayyorgarligini hisobga olish, soddadan murakkabga tamoyilining zarurligini ko'rsatish.

Darslikdagi materiallarning o'zlashtirilishini ta'minlovchi matndan tashqari materiallardan biri shu matn yuzasidan tuzilgan savol va topshiriqlar ekanligi. Savol va topshiriqlarning ma'lum guruhlariga ajratilishi. Savol-topshiriqlar evristik, suhbat, induktiv, deduktiv singari bir qator metodlarning asosiy vositasi ekanligi. Ularning uy vazifalarini so'rashda ham yetakchilik qilishi.

5- mavzu. Adabiyot o'quv fanidan beriladigan uy vazifalari

O'quvchi ma'naviy kamolotining asosi bo'lgan tafakkur va faoliyatdagi mustaqilligining darajasi uy vazifalarini bajarishda ham namoyon bo'lishi. Uy vazifalari bajarilishidagi eng muhim shart unda dars va darslikdagi haqiqatlarning takrorlanmasligi kerakligi. Aks holda, o'quv materialini ko'r-ko'rona eslab qolish holati yuz berishi. Uy vazifalari o'quvchining sinfdagi faoliyatidan barcha topshiriqlar o'quvchining o'zi tomonidan mustaqil ravishda bajarilishi, ta'limning bu turidan darsda tarbiyalangan mustaqil fikrlash faoliyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish uchun foydalanish juda muhim ekanligi. Ta'lim amaliyotida o'quvchilarning uy vazifalarini pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etish bilan yetarli darajada shug'ullanilmayotganligi.

6- mavzu. Yozuvchi tarjimai holining berilishiga xos xususiyatlar

Darsliklarda beriladigan hasbi hollarga qo'yiladigan talablar. Yozuvchi hayot yo'lining ijodiga aloqadorlik jihatlari. Yozuvchining uslubiga xos xususiyatlar. Yozuvchi tarjimai holini o'rganishda o'lkashunoslik materiallaridan, AKT va multimediya vositalaridan foydalanish.

7-mavzu. Adabiyot darslarida o'quvchilarni asar qahramonlarini baholashga o'rgatish. Badiiy asar qahramonlari shaxsiy sifatlarini baholashning mazmuni, usullari va metodlari. Adabiy qahramonlar tushib qolgan murakkab vaziyatlarning sabab va oqibatlarini aniqlash asnosida ularning shaxsini baholash. Shu tariqa insonni, ayni zamonda o'zini taftish qilishga yo'naltirish.

8-mavzu. Adabiyot darslarida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishning metod va usullari

Adabiyot darslarida mustaqil ishlarning turlari. Ularni yozish ko'nikmasini shakllantirish. Mustaqil ishlarning xususiyatlari va ularning turlari. Mustaqil ishlarning o'quvchi kompetentligini oshirishdagi ahamiyati.

4- modul. Adabiy ta'lim vositalari

1- mavzu. Ta'lim bosqichlarida adabiyot fanining mazmuni va qurilishi

Talabalarni o'quv-me'yoriy hujjatlar – adabiyot fanidan DTS, o'quv rejasi va dasturi bilan tanishtirish. Umumta'lim maktablari, akademik litseylar uchun

“Adabiyot” darsliklari mazmuni va unga qo‘yiladigan pedagogik, psixologik, didaktik va metodik talablar.

Talabalarda ta‘lim amaliyotida mazkur o‘quv-me‘yoriy hujjatlardan foydalanish kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish.

2- mavzu. Talabalar kompetentligini shakllantirishda adabiyot o‘qitish metodikasi fanining o‘rni va roli

Bo‘lajak o‘qituvchi kompetentligini ta‘minlashda zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka, tajriba va shaxsiy sifatlar o‘rtasidagi mutanosiblikka ega bo‘lish hamda amaliyotda ulardan foydalana bilishni rivojlantirish.

3-mavzu. Uzlüksiz ta‘limning adabiyot fanidan darsliklarning tuzilishi va mazmuni

Darslik va unga qo‘yiladigan talablar.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining “Adabiyot” darsliklarining tuzilishi va mazmuni.

Akademik litseylarning adabiyot darsliklarining o‘ziga xos xususiyatlari.

O‘quv va metodik qo‘llanmalar haqida ma‘lumot. Lug‘atlar, qomuslar. axborot-ma‘lumot manbalari va ulardan foydalanish usullari.

4-mavzu. Adabiyot darslarida ko‘rsatmalilik. Texnik vositalar va internet ma‘lumotlaridan foydalanish

Ko‘rsatmali qurollar va texnik vositalaming mohiyati, ahamiyati va turlari. AKT va didaktik ma‘lumotlar. O‘quv albomlari va lug‘atlar. Talabalarining bu boradagi bilimlarini kengaytirish, ko‘rsatmalardan o‘z o‘rnida foydalana olish malakalarini mustahkamlash. Adabiyot o‘qitishda darslarni kompyuterlashtirish. Masofaviy ta‘lim va uning xususiyatlari. Adabiyot darslarida internetdan foydalanish yo‘llari va madaniyati. Ma‘lumotlar omboridan samarali foydalanish.

5-mavzu. Adabiyot o‘qituvchisining faoliyati, darsga tayyorlanishi va uning shaxsiga qo‘yiladigan talablar

Darslarga tayyorlanish darajasining salmoqli ahamiyat kasb etishi. O‘qituvchining me‘yoriy hujjatlari. Darsga tayyorlanish bosqichlari: o‘quvchilar bilan hamkorlikda faoliyat uyushtirishni; muayyan darsda o‘rganiladigan materialning taqdim etilishini rejalashtirish. O‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, o‘z malakasini oshirib borish zaruriyatini his qilishi. Adabiyot o‘qituvchisi kompetentligining ta‘lim jarayoniga ta‘siri. O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablar. Adabiyot o‘qituvchisiga qo‘yiladigan alohida talablar.

6-mavzu. Adabiyotdan dars shakllari

Adabiyot o‘qitish metodikasi ilmidagi dars turlari, ularning tasnifi va talqini. Darslik bilan ishlash darsi. Va‘zxonlik darsi. Mustaqil fikrlash darslari. Sayohat darsi.

Konferensiya darsi. Seminar darslar. Sinov darsi. Muloqot darsi. Muammoli dars. Ko'rgazma darsi. Muxbirlar darsi. Ssenariy dars. Multimediya darslari.

Adabiyot darslarini kuzatish va tahlil qilish.

Kasbiy mahoratni oshirishda dars kuzatish va tahlil qilishning o'rni. Darslarga qo'yiladigan metodik talablar. Dars tahlili turlari: ilmiy, metodik, didaktik hamda umumpedagogik tahlil. Tahlil qilish va baholash me'yorlari.

IV. Laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Laboratoriya mashg'ulotlarida ta'limning turli bosqichlarida tashkil etiladigan dars turlari uchun ko'rgazmali materiallar, taqdimot va grafik organayzerlar, Grammatik jadval va tarqatma materiallarning eskizlarini tayyorlash ishlari amalga oshiriladi.

Tavsiya qilinadigan laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari:

1. 5-sinflar uchun "Dunyoning ishlari" mavzusi yuzasidan didaktik materiallar tayyorlash
2. Adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish oid jadvallar tayyorlash. 6-sinfda Erkin Vohidovning "Nido" dostonining o'rganilishiga oid videodars tayyorlash
3. 5-sinflarda "Ruboiy janrini o'rganish" ga qaratilgan didaktik o'yin texnologiyalarini ishlab chiqish
4. 6-sinfda "X.To'xtaboyev ijodini o'rganish" mavzuga oid videodars tayyorlash
5. 7-sinflar uchun epik asarlarni o'qitishga qaratilgan topshiriqlar ishlab chiqish
6. "Yozuvchi hayoti va ijodini o'rganish yuzasidan savol va va topshiriqlar ishlab chiqish
7. 7-sinfda "Oq kema" mavzusini o'qitish orqali matn ustida ishlashga qaratilgan topshiriqlar ishlab chiqish
8. 8-sinfda mumtoz adabiyotni sharhlab o'rganish uchun topshiriq namunalari tayyorlash
9. 9-sinfda mumtoz matn va lug'atlar bilan ishlashga oid didaktik materiallar tayyorlash
10. 9-sinfda badiiy asarni tahlil qilishga qaratilgan savol va topshiriqlar ishlab chiqish
11. 10-sinfda mumtoz lirik asarlarni o'rganishga qaratilgan savol va topshiriqlar ishlab chiqish

12. 11-sinfda badiiy asarning til xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish
13. Akademik litseylar uchun Alisher Navoiy dostonlarini o'rganishga va tahlil qilishga qaratilgan multimedia mahsulotlari tayyorlash
14. O'qitish metodlari bo'yicha materiallar tayyorlash
15. Akademik litseylar uchun Bobur hayoti va ijodini o'rganishga qaratilgan multimedia mahsulotlarini tayyorlash.
16. Cho'lponning "Kecha va Kunduz" asarini obrazlar tizimi orqali o'rganishga qaratilgan videodars va taqdimot tayyorlash
17. Akademik litseylar uchun Zulfiya hayoti va ijodini o'rganishga qaratilgan multimedia mahsulotlarini tayyorlash.
18. Badiiy asar qahramonlarini baholashga o'rgatishga yo'naltirilgan dars ishlanmalari tayyorlash.

V. Seminar mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Talabalar darslarni, alohida mashg'ulotlarni tashkil qilishda foydalaniladigan didaktik materiallarni tayyorlash, ularni rejalashtirish hamda bevosita amaliyotda qo'llash bo'yicha amaliy topshiriqlarni bajarishadi, ta'lim bosqichlari adabiyot dastur va darsliklarini chuqur o'rganadilar, ulardagi har bir nazariy ma'lumot, savol va topshiriqlarni tahlil qiladilar. Badiiy asarlar tahlili, matn ustida ishlash yo'llari, ijodkor hayoti va ijodini o'rganish mazmuni va metodlari ustida ishlash, adabiy ta'limda mustaqil ishlarni tashkil qilish shakllari, dars ishlanmalarini yaratish, mashg'ulotlarda texnik vositalarni qo'llash usullariga bag'ishlangan ishlarni ham amalga oshirish mumkin.

Shuningdek, mashg'ulotlarda "Adabiyot o'qitish metodikasi" fanidan mavjud darslik va o'quv qo'llanmalarni, metodist olimlarning monografiya, qo'llanma, maqolalarini konspektlashtirish, ular asosida dars ishlanmalarini yaratish, o'rgangan va o'zlashtirgan ma'lumotlari asosida taqdimotlar tayyorlash va namoyish etish, shuningdek, metodik jurnallardagi yangi ilmiy maqolalarga annotatsiya yozish yo'llari bilan tanishadilar.

Seminar mashg'ulot uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Adabiyot o'qitish metodikasi fan sifatida
2. Adabiyot o'qitish metodikasi tarixi

3. Fanlararo bog'liqlik va integratsiya
4. Kompetentlik va uning turlari
5. Adabiyot o'qitishda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish
6. Umumiy o'rta ta'lim maktablari adabiyot darsliklari ustida ishlash
7. Akademik litseylarning adabiyot darsliklari ustida ishlash.
8. Darslik va o'quv qo'llanmalar ustida ishlash jarayonida o'qituvchi va o'quvchi (talaba) hamkorligi
9. Elektron darsliklar va ularning asosiy xususiyatlari
10. Adabiyot darslarida uzviylik va uzluksizlik tamoyili
11. Adabiy ta'lim metodlarining amaliyotga tatbiqi
12. O'zbekiston ta'lim muassasalarida amal qilinayotgan adabiyot o'qitish metodlarini xorijdagi o'qitish metodlari bilan o'qiyoslab o'rganish
13. Adabiyot darslarida hamkorlik texnologiyasi
14. Muammoli ta'lim texnologiyasi
15. Adabiyot darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari
16. Modulli ta'lim texnologiyasi
17. Adabiyot darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish
18. Adabiyotdan sinov darslarini tashkil etish
19. Blum taksonomiyasini qo'llash yo'llari
20. Badiiy asarda obrazlarga singdirilgan ma'no va mazmun. Obrazlar tasnifi
21. Badiiy asarlarni tahlil qilish
22. Badiiy asarlarni o'rganishda o'quv tahlilidan foydalanish
23. Filologik tahlil va uning o'ziga xosliklari
24. Epik asarlar tahlili, matn ustida ishlash yo'llari. ("Xamsa" dostonlari misolida)
25. Epizodlar ustida ishlashning o'ziga xosliklari (A. Qahorning "Dahshat" hikoyasi misolida)
26. Lirik asarlarni tahlil qilish usullari
27. Mumtoz g'azal va ruboiylar tahlili. Bunda shakl va mazmun mutanosibligi.
28. Mumtoz asarlarni sharhlab o'rganish, lug'at ustida ishlash. ("Farhod va Shirin" asari misolida)
29. Dramatik asarlar tahlilida voqea va personajlar, qahramon va muallif nutqini o'rganish xususiyatlari ("Mirzo Ulug'bek" tragediyasi misolida)
30. Savol va topshiriqlar ustida ishlash
31. O'qish va asar matni ustida ishlash uchun beriladigan uy vazifalari
32. Badiiy asar tilini tahlil qilish usullari ("Navoiy" romani misolida)

33. Tabiat tasviri va badiiy asar qahramonlari tuyg'ulari ifodasi o'rtasidagi uyg'unlik. ("Yulduzli tunlar" romani misolida)
34. Ijodkor hayoti va ijodini o'rganish mazmuni va metodlari ustida ishlash
35. Badiiy asar qahramonlarini baholashga o'rgatishga yo'naltirilgan darslar
36. Zamonaviy adabiyot darslari va unga qo'yiladigan talablar, ularni tashkil etishning shakl va usullari
37. Masofaviy ta'lim va uning xususiyatlari
38. Adabiyot darslarida audiovizual va texnik vositalardan foydalanish
39. Adabiy ta'limda qo'shimcha materiallardan foydalanish usullari
40. Dars ishlanmalari, ularning mohiyati, shakl va ko'rinishlari
41. Dars kuzatish va tahlil qilish
42. Adabiy ta'limda mustaqil ishlarni tashkil qilish shakllari
43. O'quvchilarga uy insholari yozishni o'rgatish yo'llari
44. Adabiyot darslarida ifodali o'qishning talab va me'yorlari
45. Adabiy-tanqidiy materiallarni o'rganish
46. Adabiy ta'limda o'quvchilar bilimni nazorat qilish va baholash
47. Adabiyot fanidan sinfdan tashqari mashg'ulotlarning turlari va ularni tashkil etish usullari
48. Adabiyot o'quv xonasini jihozlash

VI. Fan bo'yicha kurs ishi

Kurs ishi fan mavzulariga taalluqli masalalar yuzasidan talabalarga yakka tartibda tegishli topshiriq shaklida beriladi. Ma'ruza mashg'ulotlarida egallangan nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, talabalarni ilmiy-nazariy qarashlar asosida umumlashma xulosalar chiqara olishga o'rgatish, ularning ijodiy tafakkurini o'stirish, ilmiy izlanishlar olib borish ko'nikmasini shakllantirish, fikrni izchil va ifodali bayon eta olishga o'rgatish fan bo'yicha tashkil etiladigan kurs ishlarining bosh maqsadi hisoblanadi.

Mazkur fan yuzasidan yoziladigan kurs ishi talabalarni ilmiy-ijodiy ishga yo'naltiruvchi amaliy faoliyat turi sifatida muhim ahamiyatga ega. Talaba kurs ishini yozish asosida keyinchalik yirikroq tadqiqot ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko'radi. Shuningdek, fan bo'yicha tashkil etiladigan kurs ishlari talabalarni ta'limning yuqori bosqichida bitiruv malakaviy ishini yozishga tayyorlab boradi.

Kurs ishi uchun taxminiy mavzular:

1. Umumta'lim maktablarida imom Buxoriy hadislarini o'rganishning ahamiyati

2. “Boburnoma” asarini oʻrganishda fanlararo aloqadan foydalanish
3. Choʻlponning “Kecha va Kunduz” asarini obrazlar tizimi orqali oʻrganish
4. Lirik asarlarni oʻrganishda ifodali oʻqishning oʻrni va ahamiyati
5. Mumtoz asarlarni oʻrganishda lugʻatlardan foydalanish usullari
6. Akademik litseylarda Navoiy gʻazallarini sharhlab oʻrganish
7. Taʼlim bosqichlarida Oʻtkir Hoshimov hayoti va ijodini oʻrganish usullari
8. Adabiy taʼlimda Zulfiya hayoti va ijodini zamonaviy texnologiyalar asosida oʻrganish
9. Abdulla Qahhor hikoyalarning kompozitsion xususiyatlarini oʻrganish
10. Dramatik asarlar bilan ishlashda taʼlimiy oʻyinlardan foydalanish
11. Adabiyotdan sinfdan tashqari mashgʻulotlarni tashkil etish va oʻtkazish metodikasi (Oybek ijodi misolida)
12. Maktabda Togʻay Murod hayoti va ijodini oʻrganishda interfaol usullar
13. Lirik asarlardagi badiiy sanʼat turlarini sharhli oʻrganish usullari
14. Adabiyot fanini oʻqitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish pedagogik mahoratni oshirish omili
15. Bobur ruboiylarini sharhlab oʻrganish
16. Oʻquvchilarni mantiqiy fikrlashga oʻrgatishda savol va topshiriqlarning roli
17. Akademik litseylarda qadimgi turkiy yodgorliklarni oʻrganish usullari
18. Ogahiy hayoti va ijodini oʻrganishda mustaqil taʼlimdan foydalanish
19. “Boburnoma” asarini oʻrganishda fanlararo aloqadan foydalanish
20. Choʻlponning “Kecha va Kunduz” asarini obrazlar tizimi orqali oʻrganish
21. Lirik asarlarni oʻrganishda ifodali oʻqishning oʻrni va ahamiyati
22. Muqimiy hayoti va ijodini oʻrganishda sayohat darslarini tashkil etish
23. Blum taksonomiyasi va uning adabiyot oʻqitishdagi ahamiyati
24. Abdulla Qahhor hikoyalarni koʻrgazmalilik asosida oʻrganish
25. Akademik litseylarda Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasini savol-topshiriqlar asosida oʻrganish
26. Adabiyot darslarida muammoli taʼlim usulidan foydalanishning oʻrni va ahamiyati
27. Epik asarlarni oʻrganishda texnik vositalardan foydalanish
28. Adabiyot darslarini badiiy ijodkorlik asosida tashkil etishning oʻrni va ahamiyati

29. Adabiyot darslarida o'yin texnologiyalarini qo'llash metodikasi va ahamiyati
30. Mumtoz asarlarni o'rganishda lug'atlardan foydalanish usullari
31. O'quvchilar og'zaki nutqini oshirishda qo'shimcha adabiy manbalardan foydalanish
32. Erkin Vohidov hayoti va ijodini o'rganishda musiqadan foydalanish
33. Adabiyot darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda ta'lim metodlarining o'rni
34. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda muammoli ta'limning o'rni
35. Ifodali o'qishga o'rgatish orqali o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish
36. Adabiyot darslarida tasavvuf adabiyotini o'rganish usullari
37. Adabiyot darslarida sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilish
38. O'quvchilarning kitobxonlikka bo'lgan qiziqishlarini takomillashtirish va rivojlantirish usullari
39. O'quvchilarning mustaqil ijodiy ishlarini tashkil etish

VII. Mustaqil ta'lim

Talaba mustaqil ta'limda adabiyot o'qitish metodikasi fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishi tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalari bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha adabiyot o'qitish metodikasi fani bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'lim mavzulari:

1. Istiqloq davrida o'rta maktab, akademik litseylarda adabiy ta'lim usulini va mazmunini yangilanishi

2. O'zbekiston ta'lim muassasalarida amal qilinayotgan adabiyot o'qitish metodlarini xorijdagi o'qitish metodlari bilan qiyoslab o'rganish
 3. Badiiy asar tahliliga oid qo'shimcha savol va to'shiriqlar tizimini ishlab chiqish
 4. Adabiyot o'qitish metodikasiga oid yangi adabiyotlarning obzorini tuzish
 5. Rivojlangan mamlakatlarda o'quv topshiriqlariga beriladigan e'tibor va ularning turlari
 6. O'quvchilar og'zaki va yozma nutq malakalarini oshirishning shakl va usullari
 7. Badiiy asarlarni o'rganishda o'quv tahlilidan foydalanish
 8. Epik asarlarni tahlil qilish metodikasi
 9. Lirik asarlarni tahlil qilish metodikasi
 10. Dramatik asarlarni tahlil qilish metodikasi
 11. Alohida olingan mavzu bo'yicha namunali dars ishlanmasi tuzish
 12. Adabiyot darslarida audiovizual va texnik vositalardan foydalanish
 13. Adabiyot darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish
 14. Sinfdan tashqari o'qish va uni tashkil etish
 15. Adabiyot o'qitishda darslarni kompyuterlashtirish
 16. Masofaviy ta'lim va uning xususiyatlari
 17. Blum taksonomiyasi va uning adabiyot o'qitishdagi ahamiyati
 18. Badiiy asar qahramonlari shaxsiy sifatlarini baholashning mazmuni, usullari va metodlari
 19. Ilmiy-metodik jurnallarning yangi sonlaridagi adabiy ta'limga oid maqolalarning annotatsiyasini yozish
 20. Yangi metodik adabiyotlarga taqrizlar yozish
 21. Dars ishlanmasi va taqdimot slaydlarini tayyorlash
- Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

VIII. Malakaviy amaliyot

Pedagogik amaliyot:

Pedagogik amaliyot O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi va Maktabgacha ta'lim vazirligining "Pedagogika ta'lim sohasi bo'yicha kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari bitiruvchi kurs talabalarining malakaviy pedagogik amaliyotlarini doimiy yashash joylarida o'tashlarini tashkil etish to'g'risida"gi (2019-yil 5-martdagi) qo'shma qarori asosida tashkil etiladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litseylarda o'tkaziladi va unda talabalar oliy ta'lim muassasasida olgan adabiyot o'qitish

bo'yicha egallagan nazariy va metodik bilimlarini amaliyotga tatbiq etadilar. Talabalar quyi ta'lim muassasasi malakali o'qituvchilarining adabiyot fanidan 20-25ta darsini kuzatish va tahlil qilish asosida adabiyot darslarini tashkil etish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak.

Talabalar quyi ta'lim muassasasida pedagog rahbar nazorati ostida Adabiyot fanidan 8ta tajriba-sinov darsini amalda mavjud bo'lgan dasturga binoan ma'ruza va amaliy mashg'ulot materiallari asosida (faol amaliyot) olib borishi lozim. Bundan tashqari talabalar amaliyot rahbari nazorati ostida o'quvchilar o'rtasida 2-3ta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlarni ishlab chiqish va o'tkazish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim.

Talabalar ta'lim muassasasining o'quv-me'yoriy hujjatlari bilan tanishib chiqishlari shuningdek, birlashtirilgan pedagog bilan hamkorlikda shoir va yozuvchilarning tavalludiga bag'ishlangan adabiy-ma'rifiy kechalar, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib etuvchi ma'naviy tadbirlarga ssenariy tuzishlari va ularni o'tkazishlari lozim.

IX. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar:

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Barkamol fayz media. 2018. 352-b.
2. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. 167-b.
3. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent, Kamalak, 2016. – 462 b.

Qo'shimcha adabiyotlar:

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni. 2019-yil, 29-aprel.
5. Kompetensiyaga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi: Ona tili, adabiyot, o'zbek tili (5-9 sinflar). Toshkent. 2016.
6. Йўлдошев К. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. Монография – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 192 б.
7. Монтень Мишель. Опыт. Избранные произведения в 3-х томах. Том 2. Пер. с фр. Москва: Педагогика, 1992. 560с.

8. Монтессори М. Дом ребёнка: Метод научной педагогики: Пер. с итал. – Гомель. 1993.

9. Миркосимова М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш асослари. Монография. – Т.: Фан, 2006. – 145 б.

10. Ниёзметова Р.Х. Ушлуқиз тилим тилимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. Монография. – Т.: Фан, 2007. – 215 б.

11. Анимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: "ИКАР", 2009. – 448 с.

12. Оконь В. Основы проблемного обучения. – Москва: Просвещение, 1998. С. 201.

13. Хусеинова К. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омил. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2009. – 368 б.

Internet saytlari

14. <https://ru.wikipedia.org/wiki>. Википедия. Свободная энциклопедия.

15. www.ziyo.com kutubxonasi. Ўзбек тилининг изохли луғати. – S.pdf (SECURED) 407-бет.

16. http://fikr.uz/blog/utkir_hoshimov/azhdodlar-abadiyligi.html

17. <http://dic.academic.ru/>

18. www.ozbek-adabiyoti.com.

19. www.ziyo.uz.

20. <http://www.pedagog.uz/>

21. www.forum.uz.

